https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ahmadaliyeva Guloyim Umidjon qizi
F. J.S.T.I magistratura talabasi,FJSTI Normal Anatomiya kafedra stajor o‘qituvchisi
2001anora@gmail.com

BACHADON POLIPLARIDA ENDOMETRIYDA BO‘LDIGAN MORFOLOGIK O‘ZGARISHLAR

Annotatsiya

Endometrial poliplar bachadon bo‘shlig‘ida uchraydigan keng tarqalgan giperplastik jarayonlardan biri bo‘lib, ayollarda reprodukiv salomatlikka sezilarli darajada tasir ko‘rsatadi.Ushbu tadqiqot bachadon poliplarida endometriyda yuzaga keladigan morfologik o‘zgarishlarni aniqlash baholashga qaratilgan.Tadqiqot gisteroskopiya orqali olingan endometrial polip namunalari gistologik va morfometrik usullar yordamida o‘rganiladi.Natijalar endometrial bezlarning notekis proleferatsiyasi,stromaning fibrozlanishi va tomir komponentlarining o‘zgarishini ko‘rsatadi.Olingan malumotlar endometrial polip patagenezi va klinik ahamiyatini tushunishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar

Endometrial polip, bachadon, morfologiya, giperplaziya, gistologiya, giperplastika, anormal qon ketish

Abstract

Endometrial polyps are one of the common hyperplastic processes found in the uterine cavity and significantly affect reproductive health in women. This study aims to identify and evaluate the morphological changes that occur in the endometrium in uterine polyps. The study examines the endometrial polyp samples obtained through hysteroscopy using histological and morphometric methods. The results show uneven proliferation of endometrial glands, fibrosis of the stroma, and

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

changes in vascular components.The obtained information helps to understand the pathogenesis and clinical significance of endometrial polyps.

Key words

endometrial polyp, uterus, morphology, hyperplasia, histology, hyperplastic, abnormal bleeding

Резюме

Полипы эндометрия являются одним из распространенных гиперпластических процессов, встречающихся в полости матки и существенно влияющих на репродуктивное здоровье женщин. Целью исследования является выявление и оценка морфологических изменений, возникающих в эндометрии при полипах матки. В исследовании изучены образцы полипов эндометрия, полученные при гистероскопии, гистологическими и морфометрическими методами. Результаты показывают неравномерную пролиферацию желез эндометрия, фиброз стромы и изменения сосудистых компонентов. Полученная информация помогает понять патогенез и клиническое значение полипов эндометрия.

Ключевые слова

полип эндометрия, матка, морфология, гиперплазия, гистология, гиперпластика, аномальное кровотечение.

KIRISH

Hozirgi kunda bachadon bo‘shlig‘ining giperplastik jarayonlari, xususan endometrial poliplar ginekologik amaliyotda keng uchraydigan patologiyalardan biri hisoblanadi. Endometrial poliplar bachadon shilliq qavatining fokal giperplaziyasi natijasida yuzaga kelib, turli yoshdagi ayollarda, ayniqsa reproduktiv va perimenopauza davrida ko‘p uchraydi. Ushbu patologiya ko‘pincha bachadondan anormal qon ketishlar, bepushtlik, homila tushishi va hayz siklining buzilishi bilan namoyon bo‘ladi.Endometrial poliplarning klinik ahamiyati ularning morfologik tuzilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Poliplar tarkibidagi bez va stroma komponentlarining nisbatlari, tomirlarning holati, hujayraviy proliferatsiya

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

darajasi hamda atipik o‘zgarishlarning mavjudligi kasallikning kechishi va asoratlanish xavfini belgilaydi. Ayrim hollarda endometrial poliplar fonida giperplaziya va hatto malign transformatsiya rivojlanishi mumkin.Bachadon poliplarida endometriyda yuz beradigan morfologik o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish hozirgi tibbiyot fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy diagnostika usullariga qaramasdan, endometrial poliplarning histologik va morfologik xususiyatlari har doim ham to‘liq baholanmaydi. Bu esa noto‘g‘ri tashxis qo‘yilishiga, davolash taktikasining samarasiz bo‘lishiga va kasallikning qaytalanishiga olib kelishi mumkin.

Endometriy to‘qimasida kuzatiladigan morfologik o‘zgarishlarni aniqlash orqali poliplarning rivojlanish mexanizmlarini tushunish, ularning klinik ahamiyatini baholash va malignlashish xavfini erta aniqlash imkoniyati oshadi. Shu sababli bachadon poliplarida endometriyda sodir bo‘ladigan morfologik o‘zgarishlarni tizimli ravishda o‘rganish, ularni klinik va diagnostik ko‘rsatkichlar bilan bog‘lash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.Tadqiqot maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi bachadon poliplari mavjud bo’lgan bemorlarda endometriy to’qimasida yuzaga keladigan morfologik o’zgarishlarni histologik va morfometrik usullar yordamida aniqlash, ularning strukturaviy xususiyatlarini baholash hamda bu o’zgarishlarning klinik ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, endometrial poliplarning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq o’rganish, bezlar va stromaning morfologik holatini tavsiflash hamda patologik jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini aniqlash orqali diagnostika va differensial tashxis imkoniyatlarini takomillashtirish ko’zda tutiladi.

Ilmiy yangilik

1O’zgarishlarni har tomonlama o‘rganish: Endometrial tashxis gumon qilinayotgan har bir ayollarda turli usullarda(Gistologik, elektron mikroskopik, gisteroskopik tahllil) bachadonning tizimli morfologik tahlillari o ‘tkazilmoqda)

2 O‘zgarishlarning o‘ziga hos qonuniyatlari: Morfologik o’zgarishlarning o’ziga hos qonuniyatlari endometriydagi yot hujayralar o’sishi va stromal komponentdagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o’zgarishlar aniqlangan, bu esa organizmga endometrial poliplarni tasirini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tadqiqot materiallari va metodlari

Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tadqiqot markazi farg ‘ona filiali va RIO VA BSIATM FARG’ONA fillialidagi 18-45 yosh oralig’idagi xotin-qizlar o’rtasida so’rab-surishtirish.Va yana bachadon endometriysidan olingan gistologik preparatlar.Alohida diagnostik qirish-endometriyni tekshirish uchun gistologik materialni olish.

Kasallik endometriyada turli miqdordagi (ko’p yoki bitta) va o’lchamlari (bir necha millimetr yoki santimetr) bo’lgan poliplar rivojlanishi bilan namoyon bo’ladi. Ko’pchilik to’qimalarining bu o’sma o ‘choqlari yomon xulqli o’sma bo’lmaydi, lekin ularning bir qismi atipik epiteliy tarkibiga ega bo’lishi mumkin. Bu kasallik juda keng tarqalgan va tibbiy statistikaga ko’ra, u yosh bemorlarning qariyb to’rtdan birida va postmenopauza davriga kirgan ayollarning 40 foizida aniqlanadi. PubMed, Medline va Scopus ma’lumotlar bazalarida 2018-yil 26-noyabrgacha e’lon qilingan barcha holatlar bo‘yicha qidiruvlar natijasida tos bo‘shlig‘ida 45 ta U-LM, 10 ta endomiometrioz,44 ta adenomiyomatoz polip, bo’lgan jami 466 ta holatni aniqlandi. Bachadonning endometriyal poliplari, ayniqsa, katta poliplar yoki bir nechta neoplazmalar haqida gapiradigan bo’lsak, bir qator asoratlarga olib kelishi mumkin. Eng ko’p uchraydigan asoratlarga quyidagilar kiradi:hayz siklidagi muammolar, anemiya,kuchli qon ketish,xavfli o ‘smaga aylanish ehtimoli (20%)

Homilador ayollarda bachadon endometriyal poliplari nisbatan kam uchraydigan hodisadir, chunki bu o’smalar kontseptsiya va homiladorlikka xalaqit beradi. Ammo bazi bir istisno holatlarda homiladorlik uchraydi. Bunday hollarda bachadon o’smalari turli xil asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin Masalan: homilaning tushishi yoki erta tug’ruq

Poliplarning tug’ilishga zararli ta'sirini ko’rsatadigan asosiy fan tadqiqotlarida ba'zi dalillar mavjud bo’lsa-da, klinik tadqiqotlarning dalillari kam va qarama-qarshidir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shuning uchun in vitro urug'lantirish (IVF) uchun boshqariladigan tuxumdon giperstimulyatsiyasi (COH) boshlanishidan oldin tashxis qo'yilgan poliplarni olib tashlash kerak. IVF uchun COH kursi davomida kuzatilgan poliplarni davolash yaratilgan embrionlar soni, bemorning oldingi reproduktiv tarixi va muzlatilgan embrion dasturi bo'yicha individual klinikalarning muvaffaqiyat darajasi hisobga olingan holda individuallashtirilishi kerak. [1]

Pastki reproduktiv tizimning poliplari ayollarning 7,8-50 foizida uchraydi. 6, 7 va 12-xromosomalardagi sitogenetik modifikatsiyalar, shuningdek, ferment va metabolik faollik bilan bog'liq epigenetik omillar poliplarning rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi taxmin qilingan. Bachadon bo'yni poliplari 2-5% hollarda kam klinik ahamiyatga ega va kamdan-kam hollarda jinsiy aloqadan keyingi qon ketishiga olib kelishi mumkin. Bachadon bo'yni poliplari homiladorlik va mukoreya paytida o'sadi. Transvaginal ultratovush tekshiruvi (TVU) endometriyal poliplarning (EP) o'lchami va anatomik joylashishini tashxislash uchun ajoyib diagnostika usuli hisoblanadi. Hajmi 10 mm dan kichik bo'lgan asemptomatik yosh ayolda polip o'sishini kuzatish orqali konservativ davo xavfsiz tarzda amalga oshirilishi mumkin.[Ayol reproduktiv organlarida poliplarni davolash[2]

Adenematoz polip va bepushtlik va gormonal terapiya o'rtasidagi munosabatlar ham munozara mavzusidir . Vaziyat hisobotlari ma'lumotlariga ko'ra, Adenematoz polip turli xil gistologiyaga ega va atipik polipoid adenomioma va adenosarkoma kabi asoratlanuvchi o'smaga o'xshash bo'lishi mumkin. Agar adenematoz poliplar yuzaki silliq mushak neoplazmalarini ifodalasa, ular MED12 (mediator kompleksi subunit 12) genida mutatsiyalarga ega bo'lishi mumkin.[3]

Ushbu maqolada baholangan endometrial polyplarda kuzatiladigan morfologik o'zgarishlar klinik va patomorfologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Endometriy poliplari endometriyal bezlar, stromal hujayralar va tomirlardan tashkil topgan fokal giperplastik lezyon sifatida namoyon bo'ladi, ularning ko'pchiligi benign bo'lishiga qaramay, ba'zan atipik hujayra o'zgarishlari yoki hiperplaziya ko'rinishlari bilan murakkablashadi. Histeroskopik olib tashlangan poliplarning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

histologik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik holatlar oddiy benign polip bo‘lsa-da, atipik hiperplaziya yoki atipik stromal o‘zgarishlar ham uchrashi mumkin [4]. Endometrial poliplarning patogenezi kompleks bo‘lib, genetik omillar (masalan, HMGA1 va HMGA2 o‘zgarishlari) va signallash yo‘llari disbalansi polip rivojlanishiga hissa qo‘shadi [5]. Ba’zi hollarda endometriyal poliplardagi nodulyar yoki “bizarre” stromal hujayralar tashxis qo‘yishda qiyinchilik tug‘diradi va adenomiyosarkoma kabi agressiv jarayonlardan farqlashni talab qiladi [7]. Endometriyal poliplar klinik jihatdan anormal qon ketish, bepushtlik yoki hayz sikli buzilishlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lib, giperplastik to‘qima bilan birga o‘sish jarayonini davom ettiradi[6]. Shu sababli, poliplarning mikroskopik strukturasini baholash, atipiya darajasini aniqlash va ehtimoliy malign transformatsiya xavfini baholashda histopatologik tahlil zarurdir.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida 80 nafar endometrial polip tashxisi bilan kelgan bemorlar tanlab olindi va barchasi gisteroskopik operatsiyaga yo ‘naltirildi. Endometriy va miometriyda eng ko ‘p uchraydigan o‘sma turi bu-poliplardir. Asosiy klinik belgisi bachadondan anormal qon ketish. Endometrial polip odatda yarim saferik shaklda va kam holatlarda oyoqchali ko ‘rinishda bo ‘ladi va endometriy yuzasida joylashgan.Ularning diametri 0,5-3smga boradi. Mikroskop bilan tekshirib ko’rilganda polip stromasi endometriydan iborat, epiteliy bilan qoplangan, xujayrasi slindrsimon shaklda,lekin hajmiy jihatdan ancha kattaroq bo’ladi. Endometriy bezlari ko’p hollarda kistaga o’xshab kengayib ketadi. Yo’naltirilgan bemorlarning asosiy qismida quyidagi polip turlari aniqlandi.bular adenematoz polip,platsentar polip,bezli polip,bezli kistozli polip.

-Bezli polip 30,0 %

-Platsentar polip 22,5 %

-Bez-kistoz polip 35,0 %

-Adenomatoz polip 12,5 %

Jami 80 100 %

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026


Adenomatoz polip morfologiyasi:Adenomatoz polip — epiteliyning neoplastik o'sishi bo'lib, ko'pincha yo'g'on ichakda uchraydi va karsinoma rivojlanishi xavfi yuqori bo'lgan prekansor o'sma hisoblanadi. Uning morfologik ko'rinishlari quyidagi asosiy belgilar bilan xarakterlanadi:

O'sish shakli bo 'yicha:Pedunkulyar (oyoqli, sopli) va Sessil (yassi asosli)

O'lchami: odatda 0.5–2 sm, katta bo'lganda malignizatsiya xavfi ortadi.

Yuzasi: qo'pol, donador, ba'zan papillomatöz.

Rangi: atrof shilliq qavatga nisbatan qizilroq yoki pushtiroq



1Adenematoz polipning makroskopik tuzilishi

Adenomatoz poliplar uch histologik turga bo'linadi:

a) Tubulyar adenomalar ko'pchilikni tashkil etadi.Tubulyar bezlar ko'p bo'lib, tartibsiz proliferatsiya kuzatiladi.Displazi odatda yengil yoki o'rta darajada.

b) Villoz adenomalar:Yuzasi villoz (bargsimon) tuzilmalar bilan qoplangan.Kattaroq o'lchamli, malignizatsiya xavfi yuqori.Epiteliyning o'rtacha–og'ir displaziyasi ko'p uchraydi.

c) Tubulovilloz adenomalar:Tubulyar va villoz komponentlar aralash holda.

3.Sitologik xususiyatlar; Displazi–adenomatoz polipning asosiy belgisi,Yadro o'lchamining kattalashishi, Giperxromatik yadro,Yadro-polarlanishning buzilishi,Mitotik faollikning oshishi,Og'ir displazi bo'lsa, karsinoma in situ ehtimoli bor.

4.Stromal o'zgarishlar:Yengil yallig'lanish,O'tkir holatlarda shish va qon quyilishi,Shilliq sekretsiyaning ortishi

5.Malignizatsiya xavfi bilan bog'liq morfologik omillar:Polip kattaligi (>2 sm),Villoz komponentning mavjudligi,Sessil shakl,Og'ir displazi darajasi




Рисунок 2Shpindel hujayralarida o'rtacha miqdorda eozinofil sitoplazma cho'zilgan"sigarasimon" yadrolar, to'plangan xromatin, ko'zga ko'ringan yadrochalar va hujayra chegaralari noaniq bo'ladi.

Adenematoz polipda mikropreparatda nozik tolali biriktiruvchi to'qima tashqi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tomondan endometriy bilan o‘ralgan, qon tomirlarining notekis to‘laqonligi, endometrial bezlar sekretsiya fazasida, chuqur soxalarda mushak tolalari bo‘lib, miotsitlar tutamlar hosil qilib xar tomonga yo‘nalganligi va yolg‘iz joylashgan endometriy bezlarining kistoz kengayishi, plazmatik hijayralar bilan infiltratsiyalanishi mavjud

Bez-kistoz polip: Bez-kistoz polip–shilliq qavatning bezlari giperplaziyasi va ularning kistoz kengayishi bilan kechadigan, ko’pincha giperplastik tabiatli bo’lgan o’sma-sifatli polipdir. U bachadon (endometriy), o’t pufagi, qorin-ichak yo’li kabi organlarda uchrashi mumkin.

Makroskopik morfologiya:Shakli: odatda sessil (yassi asosli), ba ‘zan kichik sopli bo’lishi mumkin.O’lchami: 0.2–1 sm atrofida; ba ‘zida kattaroq o’lchamga yetishi mumkin.Rangi: pushti–qizg’ish yoki och qizil.Yuzasi: silliq yoki mayin donador, shilliq bilan qoplangan.Konsistensiyasi: yumshoq, elastik bo ‘ladi.

Bez-kistoz polip makroskopik ko ‘rinishi

Mikroskopik morfologiya

a) Bez komponenti:Bezlar ko’paygan, turli o’lchamda, tartibsiz joylashgan.Ba ‘zi bezlar kistoz kengaygan (kattalashgan bo’shliqlar shakllanadi).Bezlar odatda bir qatlamli silindrsimon epiteliy bilan qoplangan.

b) Epiteliy xususiyatlari:Epiteliy hujayralarida displazi kuzatilmaydi (neoplastik emas).Yadro-sitoplazma nisbati normal.Ko’pincha sekretsiya faolligi oshgan bo’ladi.

c) Stroma:Stromada tolali (fibroz) o’zgarishlar bo’lishi mumkin.Yengil darajadagi limfoid infiltrat uchraydi.Ba‘zan endometriyda–funktsional va bazal qatlam o’zgarishlari aralash ko’rinadi.

Endometriydagi morfologik o’zgarishlarning uchrashish chastotasi (N=80)

Morfologik o’zgarish	N	Foiz (%)
Bezlarning proliferatsiyasi	42	52.5
Stromaning fibrozlashuvi	38	47.5

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Yallig'lanish infiltrati	30	37.5
Kistoz kengaygan bezlar	27	33.7
Epitelial atipiya	10	12.5
Qon tomir proliferatsiyasi	18	22.5

Xulosa;Bachadon poliplari hozirgi kunda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, polietiologik omillar sabab bo'ladi. Bachadon poliplari ayollarda qon ketish, bepushtlik, anemiya, og'riq, xomilador ayollarda qon ketish sababli erta tug'ruq yoki homilaning nobud bo'lishi kabi asoratlarga olib keladi. Tadqiqotlarimiz natijasida tekshiruvga olingan bemorlarning 30%da endomeriynig bezli polipi, 12.5% da adenematoz polip, va 22,5% da platsentar polip 35%da bez-kistoz polip aniqlandi. Davo chorasi sifatida barcahsiga xirurik usul qo'llangan.Kasallikning ko'p uchrashini inobatga olgan holda operativ davoni konservativ davoga iloji boricha alishtirishni va kasallikning oldini olish bo'yicha kompleks choralar ishlab chiqish zarurligini aytib o'tishimiz lozim. Bu natijaga poliplarda endometriyda bo'ladigan morfologik o'zgarishlarini o'rganish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evropa akusherlik va ginekologiya va reproduktiv biologiya jurnali151-jild, 2-son ,2010-yil, avgust, 117-121-betlar Subfertil ayollarda endometriyal poliplarni boshqarish: tizimli tahlil Xolid Afifi a,Sujata Anand b,Soumendra Nallapeta c,Tarek Ahmad Gelbaya d
2. Tanos, Vasilios MD, PhD a,b,* ; Berri, Kelsi Elizabeth a, b ; Seikkula, Yaana MD c ; Abi Raad, Elissa a,b ; Stavroulis, Andreas MD, MRCOG, CCT (Buyuk Britaniya) a ; Sleyman, Zaki MD d ; Campo, Rudi MD e ;Xalqaro jarrohlik jurnali 43 (): p 7-16, iyul 2017. | DOI: 10.1016/j.ijsu.2017.05.012]
3. [Bachadon adenomiomatoz poliplarining klinikopatologik va immunogistokimyoviy xususiyatlari 2019, Inson patologiyasi Iqtibos]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

4. Adenomyomatous uterine polyp in a Miniature Pinscher: histologic, immunohistochemical, and clinical aspects Phawut Nueangphuet, Mika Tanabe, Uda Zahli Izzati,Naoyuki Fuke, Takuya Hirai, Ryoji Yamaguchi Journal of Veterinary Diagnostic Investigation 2022, Vol. 34(1) 102–106
5. Natural history of uterine polyps and leiomyomata DeWaay, Deborah J.; Syrop Craig H. MD ; Nygaard, Ingrid E. MD ; Davis, William A. MD ; Van Voorhees Bradley J. MD Obstetrics gynecology January 2025Volume145 Issue1
6. Автор статьи: Щербина Лидия Александровна гинеколог / Стаж: 43 года